

NGT yo'nalishi talabalari uchun "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari"  
fanidan baholash me'zonlari

**1. Umumiy qoidalar:**

- talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - 5 (a'lo) baho;
- talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda- 4 (yaxshi) baho;
- talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - 3 (qoniqarli) baho;
- talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda - 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

**2. Oraliq nazoratni baholash**

Oraliq nazorat yozma tarzda o'tkazilib, undan 3 ta nazariy savolga va 1 ta amaliy masalaga javob berish talab qilinadi. Har bir savollar va amaliy masala 5 baho bilan baholanadi. Talabanning olgan bahosi jamlanib 4 ga bo'linadi (4 ta topshiriq bo'lganligi uchun).

Nazariy savollar uchun:

- Agar savol mohiyati to'la ochilgan bo'lsa, javoblari to'liq va aniq hamda ijodiy fikrlari bo'lsa 5 baho;
- Savolning mohiyati umumiy, ochilgan asosiy faktlar to'g'ri bayon etilgan bo'lsa - 4 baho;

- Savolga umumiy tarzda javob berilgan, ammo ayrim kamchiliklari bo'lsa - 3 baho;
- Savolga javob berishga harakat qilingan, ammo to'g'ri javob berilmagan bo'lsa - 2 baho;
- Umuman javob mavjud bo'lmasa (talaba faqat savollarni ko'chirib qo'ygan yoki nazoratga kelmagan) – 0 baho.

Amaliy masala uchun:

- Agar masala mohiyati to'la ochilgan bo'lsa, echimlari to'liq, aniq hamda yagona to'g'ri natijaga olib keladigan bo'lsa - 5 baho;
- Masalaning mohiyati umumiy ochilgan asosiy ob'ektlar to'g'ri bayon etilgan, lekin echim farqli bo'lsa - 4 baho;
- Masalaga umumiy tarzda yondashilgan, ammo ayrim kamchiliklari bo'lsa - 3 baho;
- Masalaga echim topishga harakat qilingan, ammo to'g'ri echim berilmagan bo'lsa - 2 baho;
- Umuman javob mavjud bo'lmasa (talaba faqat masala shartini ko'chirib qo'ygan yoki nazoratga kelmagan) – 0 baho.

Oraliq nazorat savol va topshiriqlari kafedra muduri tomonidan o'quv yili boshida tasdiqlanadi.

$$OB = \frac{bs_1 + bs_2 + bs_3 + bs_4}{4}$$

Bu yerda OB oraliq nazoratlar bo'yicha olingan baholarning o'rta arifmetigi,  $bs_n$  – mos savolga berilgan javob uchun baho.

Talaba tomonidan olingan oraliq nazorat bahosi 3 va undan ortiq bo'lsa u fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirishiga ruxsat beriladi. Aks holda talaba fan bo'yicha akademik qarzdor deb hisoblanadi.

### **3. Yakuniy nazoratni baholash**

Oraliq nazorat turi bo'yicha 2 bahodan yuqori baho olgan talaba yakuniy

nazoratda 30 ta test savoliga javob berishi lozim. Yakuniy nazoratda talabalar javobi 5 baholik tizimda baholanadi.

### Talabalar javoblarini baholash jadvali

To'g'ri javoblar soni	baho
27 tadan 30 tagacha	5
22 tadan 26 tagacha	4
17 tadan 21 tagacha	3
0 tadan 16 tagacha	2
Talaba yakuniy nazoratda qatnashmasa	0

Yakuniy nazorat testlari kafedra muduri tomonidan o'quv yili boshida tasdiqlanadi.

### 4. Amaliy mashg'ulotdagi faoliyatni baholash

№	Mavzular nomi	5	4	3	2
1	Ta'limni boshqarish tizimi (Moodle)da ishlash. Ma'lumotlarni qidirish, saralash va filtrlash amallari.	Tizimda to'la ishlay oladi. Ma'lumotlarni qidirish, saralash va filtrlash amallari to'liq o'zlashtirgan.	Tizimda ishlay oladi. Ma'lumotlarni qidirish, saralash va filtrlash amallari o'zlashtirgan.	Tizimda ishlay oladi. Ma'lumotlarni qidirish, saralash va filtrlash amallari biladi.	Tizimda ishlay olmaydi
2	Muhandislik texnologiyalari tizimlarida elektron hujjatlarni amaliy dasturlar yordamida qayta ishlash.	Amaliy dasturlarda to'liq ishlay oladi. Hisobotlarni did bilan rasmiylashtiradi	Amaliy dasturlarda ishlay oladi. Hisobotlarni yaxshi rasmiylashtiradi	Amaliy dasturlarda ishlay oladi.	Amaliy dasturlarda ishlay olmaydi.
3	Sohaga oid ma'lumotlarni vizuallashtirish texnologiyalaridan foydalanish.	Excel dasturida funktsiyalar, diagrammalar, formulalar bilan to'liq ishlay oladi.	Excel dasturida funktsiyalar, diagrammalar, formulalar bilan ishlay oladi.	Excel dasturida funktsiyalar, formulalar bilan ishlay oladi.	Excel dasturida ishlay olmaydi.
4	Boshqaruv texnik tizimlarida ma'lumotlar bazasini tadqiq qilish. Ma'lumotlar bazasida so'rovlar bilan ishlash	Ma'lumotlar omborida jadval, so'rov, forma va hisobotlar yarata oladi.	Ma'lumotlar omborida jadval, forma va hisobotlar yarata oladi.	Ma'lumotlar omborida jadval va formalar yarata oladi.	Ma'lumotlar ombori yarata olmaydi
5	Grafik fayllar yaratish, ularni texnik tizimlarda qo'llash va qayta ishlash.	Grafik fayllarni yarata oladi. Fayllarga zamonaviy dizayn bera oladi, rastrli, vetorli va fraktal grafika bilan ishlay oladi.	Grafik fayllarni yarata oladi. Fayllarga dizayn bera oladi, rastrli va vetorli grafika bilan ishlay oladi.	Grafik fayllarni yarata oladi. Rastrli grafika bilan ishlay oladi.	Grafik fayllarni yarata olmaydi.
6	MathCAD dasturida muhandislik masalalarini matematik	MathCAD dasturida berilgan	MathCAD dasturida berilgan	MathCAD dasturida	MathCAD dasturida

	modellarini ifodalash.	masalani to'liq echa oladi. Grafiklar va hisobotlarni to'liq yarata oladi.	masalani echa oladi. Grafiklar va hisobotlarni yarata oladi.	berilgan masalani echa oladi.	ishlay olmaydi.
7	MatLab tizimi, imkoniyatlari, imitatsion modellash vositalari.	MatLab dasturida berilgan masalani to'liq echa oladi. Grafiklar va hisobotlarni to'liq yarata oladi.	MatLab dasturida berilgan masalani echa oladi. Grafiklar va hisobotlarni yarata oladi.	MatLab dasturida berilgan masalani echa oladi.	MatLab dasturida ishlay olmaydi.
8	Zamonaviy avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari. AUTOCAD dasturida loyihalash	AUTOCAD dasturida chizma va loyihalarni to'liq chiza oladi. Uch va ikki o'lchovli tasvirlarni yarata oladi	AUTOCAD dasturida chizma va loyihalarni chiza oladi. Ikki o'lchovli tasvirlarni yarata oladi	AUTOCAD dasturida chizmalarni chiza oladi. Ikki o'lchovli tasvirlar bilan ishlay oladi	AUTOCAD dasturida chizmalarni chiza olmaydi.
9	Web sahifa yaratish texnologiyalarini o'rganish (HTML, JavaScript, PHP, CSS dasturlash tillari yordamida amalga oshirish).	HTML, JavaScript, PHP, CSS dasturlash tillari yordamida dinamik Web sahifa yarata oladi	HTML, JavaScript, CSS dasturlash tillari yordamida statik Web sahifa yarata oladi	HTML dasturlash tili yordamida statik Web sahifa yarata oladi	Web sahifa yarata olmaydi

Har bir amaliy mashg'ulotda talabalar tomonidan bajargan ishlar yuqoridagi jadval bo'yicha baholab boriladi.